

INKLYUZIV TA’LIMDA TALABALARNING O‘Z-O‘ZINI PERSONALLASHTIRISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi

Namangan davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida talabalar (o‘quvchilar)ning o‘z-o‘zini personalizatsiya qilish jarayonini rivojlantirishning didaktik asoslari yoritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion yondashuvlar hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining o‘rni tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, personalizatsiya, individual yondashuv, didaktik shart-sharoit, refleksiya, motivatsiya, ta’lim texnologiyalari.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются дидактические условия развития процесса самоперсонализации обучающихся в условиях инклюзивного образования. Проанализированы педагогические подходы, обеспечивающие эффективную организацию образовательного процесса с учётом индивидуальных особенностей обучающихся. Особое внимание уделено роли инновационных технологий, мотивации и рефлексии в развитии самостоятельной учебной деятельности.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, самоперсонализация, индивидуальный подход, дидактические условия, мотивация, рефлексия, образовательные технологии.*

Abstract: *This article examines the didactic conditions for developing students’ self-personalization process in inclusive education. It analyzes pedagogical approaches that ensure effective organization of the educational process considering individual characteristics of learners. Special attention is paid to the role of innovative technologies, motivation, and reflection in fostering independent learning activities.*

Keywords: *inclusive education, self-personalization, individual approach, didactic conditions, motivation, reflection, educational technologies.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda inklyuziv ta’lim alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu barcha o‘quvchilar, jumladan imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan tizimdir. Ushbu tizimda asosiy e’tibor shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga qaratilib, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olish muhim sanaladi. Jahon ta’lim tizimida kechayotgan islohotlar inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim mazmunini individuallashtirish va har bir shaxsning shaxsiy salohiyatini to‘liq namoyon etishiga qaratilmoqda. [6].

Ayniqsa, inklyuziv ta’limni joriy etish orqali barcha ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim berish muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Inklyuziv ta’lim muhitida talabalar nafaqat bilim

oluvchi sifatida, balki o‘z rivojlanish trayektoriyasini mustaqil belgilaydigan, shaxsiy salohiyatini anglaydigan va rivojlantiradigan faol sub’ekt sifatida maydonga chiqadi. Bunday sharoitda talabalarning o‘z-o‘zini personallashtirish jarayoni, yan’i ularning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shaxsiy maqsadlarini belgiash, ta’lim faoliyatiga ongli va mas’uliyatli yondashuvni shakllantirish zarurati yanada ortmoqda.

Ayni paytda, zamonaviy inklyuziv ta’lim muhitida talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab - quvvatlovchi didaktik shart-sharoitlar tizimini aniqlash, uning mazmun -mohiyati, funksional yo‘nalishlari va samaradorlik mezonlarini ilmiy asoslash ta’limda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Bu borada konstruktivizm, gumanistik pedagogika, kognitiv rivojlanish nazariyalari, madaniy-huquqiy yondashuv, personalizatsiyaning pedagogik modellari kabi ilmiy nazariy asoslarga tayanish zarur. Ta’limni personallashtirish, individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish, talabaning shaxsiy sub’ektiv tajribasini anglash va integratsiya qilish, interaktiv va inklyuziv texnologiyalardan samarali foydalanish kabi omillar mazkur jarayonning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim sharoitida talabalarning o‘z-o‘zini personallashtirish jarayonini rivojlantirish uchun maqsadli ravishda tashkil etilgan didaktik shart-sharoitlarning mavjudligi nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi, kasbiy identifikatsiyasi va uzluksiz rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. Ushbu shart-sharoitlar - pedagogik muhitning gumanistik yo‘naltirilganligi, interaktiv faol o‘qitish texnologiyalarining joriy etilishi, psixologik qo‘llab - quvvatlash tizimi, ta’lim muassasasining inklyuziv madaniyatini shakllantirish kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi [8]. Inklyuziv ta’limning rivojlantirishning qadriyatli shart-sharoitlari sifatida shaxsni insonparvarlik ruhida tarbiyalash g‘oyalari va insonda tolerantlik munosabatlarini tarkib toptiradi. Ayni vaqtda pedagog, tadqiqotchilar oliy ta’limda pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlashni tashkil etish jarayonini ko‘rib chiqish imkonini beruvchi klassik yondashuvlarga tayanadi[11].

Asosiy didaktik shart – sharoitlar:

1. Adaptiv ta’lim - inklyuziv ta’limda ta’lim mazmuni turli qobiliyat, bilim va o‘rganish imkoniyatlariga ega talabalar uchun moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Mazmundagi asosiy elementlar talabaning ehtiyojiga ko‘ra qayta ishlanishi mumkin. Amaliyotda modulli va blikli tizim; integratsiyalashgan fanlar; yumshoq ko‘nikmalar (soft skills) bilan boyitilgan kurslar bo‘yicha amalga oshiriladi.

2. Differensiyalashtirilgan va individuallashtirilgan o‘qitish - har bir talaba turli rivojlanish darajasi va o‘qish qobiliyatiga ega. Inklyuziv ta’limda didaktika shu turlilikni hisobga olib, o‘qitishdagi yondashuvlarni individuallashtirishni talab etadi. Qo‘llanilishi individual o‘quv rejalarini; darajalashtirilgan topshiriqlar; o‘quv materiallarining ko‘p formatli (tekst, audio, video) shakllaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi.

3. Faol va interaktiv ta’lim texnologiyalari - faol metodlar talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlab, jamlanma va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan samarali foydalanish - inklyuziv ta’limning ajralmas qismi. Ular ta’lim resurslariga keng kirish imkoniyatini beradi, ta’limni individuallashtirish va multimodal yetkazish imkonini yaratadi.

5. Qo’llab - quvvatlovchi psixologik va ijtimoiy muhit - inklyuziv ta’limda har bir talabaning o’zini xavfsiz, qabul qilingan va qo’llab -quvvatlangan his qilishi juda munim. Bu ta’lim muhitidagi psixologik mikroklimat, o’qituvchi va guruhdoshlar munosabati bilan bog’liq.

6. O’qituvchilarning tayyorgarligi va didaktik kompetensiyasi - o’qituvchi inklyuziv muhitda o’qitish uchun maxsus bilim, ko’nikma va qarashlarga ega bo’lishi kerak. Bu jarayonda u murabbiy, maslahatchi, moderator va refleksolog sifatida ishlaydi.

7. Ta’lim jarayonida multimodal va ko’p sezuvchan yondashuvlardan foydalanish - talabalar ma’lumotni turlicha qabul qiladilar: vizual, audial, kinestetik ba boshqalar. Inklyuziv muhitda didaktika bunga javoban ta’lim resurslarini turli formatlarda taqdim etishi kerak.

8. Mukammal baholash tizimi - inklyuziv muhitda baholash faqat natijaga emas, balki jarayonga va shaxsiy rivojlanishga ham yo’naltirilgan bo’lishi kerak.

Inklyuziv ta’limdagi didaktik shart - sharoitlar - bu har bir talabaning shaxsiy rivojlanishini, ta’lim jarayonidagi faolligini, salohiyatini ro’yobga chiqarishini qo’llab - quvvatlovchi didaktik tizimdir. Ushbu shart-sharoitlar ta’lim jarayonining barcha komponentlarini - mazmun, shakl, metod, muhit va sub’ektlar o’rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida o’z-o’zini personalizatsiya qilish jarayoni o’quvchilarning faolligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, o’quvchilarda ijtimoiy moslashuv, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko’nikmalari rivojlanadi. Bu esa ularning kelajakdagi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limda o’z-o’zini personalizatsiya qilish jarayonini rivojlantirish uchun puxta o’ylangan didaktik shart-sharoitlar zarur. Individual yondashuv, zamonaviy texnologiyalar, motivatsiya va refleksiya jarayonlari ushbu tizimning samaradorligini ta’minlaydi.

Mazkur yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki har bir o’quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son) <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008, 12-son.

3. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (Yunisef). – T., 2014. – 54 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil 11 dekabr, 49-son, 1195 modda

5. Abdullayev, N. M. Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot / N. M. Abdullayev. — Toshkent: «Fan», 2020. — 256 b.
6. Abdullayeva B.S. Talabalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish // International scientific and practical conference "Innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage on the silk road", may 3-4, 2024. P. 1214-1218.
7. Garashkina V. N., Druzhinina A. A. Technology for organizing self-regulated learning at the stage of early professionalization of high school students in psychological and pedagogical classes // Vestnik Tambovskogo universiteta. Series: Humanities. – 2024. – Vol. 29, No 2. – Pp. 281–293.
8. Демешина А.Р., Г.И. Щукина о познавательном интересе // Современное образование: актуальные вопросы, достижения и инновации сборник статей XIII Международной научно-практической конференции. Пенза – 2018. С. 69-71.
9. Kalbayeva X.Dj. Inklyuziv ta’lim jarayonida boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish // Ped.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati, Toshkent – 2024, 54 b.
10. Карынбаева, О.В. Подготовка педагогов дополнительного профессионального образования к формированию инклюзивной образовательной среды в общеобразовательных организациях: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / О.В. Карынбаева. Тольятти, 2016. 214 с.
11. Кахарова D.S. Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limning pedagogikpsixologik jihatlarini takomillashtirish // pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand – 2019. 51-b.